


SOLNOMASI

IFTIXOR VA G'URURIMIZ TIMSOLI



Har bir xalq, millat uchun o'z vatanining ramzlari muqaddas hisoblanadi. Boisi ularda o'sha xalqning shonli o'tmishi va buyuk kelajagi, asriy an'ana va urf-odatlar o'z aksini topadi. Ana shunday ramzlardan biri bu davlat bayrog'idir. **18-noyabr** – “O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida”gi Qonun qabul

qilingan kun. Davlat bayrog'i O'zbekiston davlat suverenitetining ramzidir.

Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi bayrog'i qabul qilinganligining **32 yilligi** Qo'qon universitetida munosib nishonlandi. Talabalar bayramona muhitda kutib olinib, harbiy parad va milliy kiyimlar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Harbiy parad **42090-harbiy qism askarlari** bayrog'imizni ko'targan holda harakatlangani, harbiy orkestr chiqishlari uyg'unligida ko'rgazmali taktik mashqlar, jangovar mahoratlarini namoyish etgani barcha-barchaga iftixor va g'urur tuyg'usini baxsh etdi.

Miliy qo'shiqlar sadosi uyg'unligida o'tgan ko'r-

gazma esa barcha talabalarda iliq taassurot qoldirdi. Albatta, milliy liboslarimiz namoyishiga bag'ishlangan bunday ko'rgazmalar yoshlarning milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatini yanada oshirishda, an'analarimizni qadrlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



VIDEO



MATEMATIKA FANIDAN OLIMPIADA
4-betda



NAMUNALI TALABALAR
5-betda



QO'QON UNIVERSITETI ANDIJON FILIALI
7-betda

MENING KONSTITUTSIYAM – SHA'NIM VA QADIRIM HIMOYACHISI!

Qo'qon shahar musiqali drama teatrida **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 31 yilligi** keng nishonlandi!

Qo'qon shahar musiqali drama teatrida bo'lib o'tgan tadbirida keng jamoatchilik vakillari, mahalla faollari hamda Qo'qon shahridagi oliy ta'lim muassasalarining talabalari ishtirok etdi.



VIDEO

Bayramona tadbir Qo'qon shahar hokimi – **Ma'rufjon Usmonov Azamovichni** tabrik so'zi bilan boshlanib, mudofaa bo'limining harbiy chiqishlari, vatanni madh etuvchi she'r, kuy va qo'shiqlarga ulanib ketdi.

Qo'qon universiteti talabalari ham ushbu tadbirga tashrif buyurib, ajoyib bayramona tadbir guvohiga aylandi.

“SEN O‘Z HUQUQINGNI BILASANMI?” VIKTORINALAR TANLOVI

Qo‘qon universiteti-da O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yilligi munosabati bilan “Sen o‘z huquqingni bilasanmi?” viktorinalar tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatimiz xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, siyosiy yetakchilik qobiliyatini yuzaga chiqarish maqsad qilingan tanlovda Qo‘qon universitetining xorijiy til, psixologiya, boshlang‘ich ta‘lim, yo‘na-



lishlarining qizlari ishtirok etdi.

Viktorinada jamoalarga yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Kons-

titutsiyasi bo‘yicha 5 tadan savollar berildi va tanlov hay‘ati tomonidan jamoalar quyidagi o‘rinlarni qo‘lga kiritdi:

1-o‘rinni boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishining **1/22-guruh** talabalari;

2-o‘rinni xorijiy til yo‘nalishining **7/22-guruh** talabalari;

3-o‘rinni xorijiy til yo‘nalishining **1/22-guruh** talabalari;

4-o‘rinni psixologiya yo‘nalishining **2/22-guruh** talabalari egalladi.

Yakunda tanlov ishtirokchilariga esdalik sovg‘alar va tashakkurnomalari taqdim etildi.

Talabalar «ТВОЙ МИР – ТВОЙ ПРОЕКТ» nomli xalqaro chempionatda faxrli 4-o‘rinni egallashdi

Qo‘qon universiteti talabalari Rossiyadagi Janubiy Ural davlat universiteti bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Sizning dunyoyingiz – sizning loyihangiz” nomli xalqaro chempionatga muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Mazkur chempionatda talabalar loyiha boshqaruvi hamda tejamkor ishlab chiqarish yo‘nalishlarida loyihalar boshqaruvi mutaxassisi **Usmonov Husan Axmedovich** boshchiligidagi “Наследники Востока”

jamoasi qatnashdi va faxrli **4-o‘rinni qo‘lga kiritishdi**.

Qayd etish joizki, EKR-1-23 talabalari – Axrorov **MuxammadAzizxon** Azamatovich, Yunusov **Abdulhamid** Sohibovich, Dadajonov **Ibrohim** Rahmatovich,

Soliyeva **Munixon** Saidovna, Rahmonova **Shahlo** Shavkatovna, Azimova **Go‘zal** Adhamovna 68 ta jamoa ichida 4-o‘rinni qo‘lga kiritishdi.

Ushbu xalqaro chempionatda munosib ishtiroki uchun sertifikatni jamoaga Qo‘qon universiteti direktori Zaxidov G‘afurjon Erkinovich topshirdi va kelgusi musobaqalarda bundanda yuksak marralarni zabt etishlariga ishonch bildirdi.



Jamoaning musobaqa uchun tayyorlagan videoroligi.



VIDEO

OGOHLIK – DAVR TALABI!

Qo‘qon universiteti talaba-yoshlari o‘rtasida davra suhbatlari o‘tkazildi. Tadbirda Farg‘ona viloyati IIB 2-Mintaqaviy hudud muvofiqlashtirish markazi jinoyat qidiruv bo‘lim boshlig‘i, kapitan **Jo‘rayev Xurshidjon Zafarjon o‘g‘li** hamda 2-sonli Narkologiya dispanseri shifokori **Nodira Azimova** o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etdilar.



Ma‘ruzalarda yoshlar jamiyat hayotida tobora faollashib, o‘z o‘rniga ega bo‘lib borayotgan bir vaqtda ayrim irodasi sust o‘smirlar givohvandlik va psixotrop



vositalar balosiga muhtalo bo‘layotgani, o‘g‘uning nafaqat inson jismi, balki jamiyatga ham mislsiz zarari borligi hayotiy misollar bilan ochib berildi.

Shuningdek, bu illat insonni ruhan va jismonan “yemirib”, mehnatga yaroqsiz holga keltirishi, qator jinoyatlarga sabab bo‘lishi sanab o‘tildi. Yakunda yoshlar givohvandlik vositalari tarqalishining oldini olish, osoyishtalikni saqlashdek umumishda hamkorlik va ogohlikka chorlandi.

MAKTAB DIREKTORLARI QO'QON UNIVERSITETIDA

Dang'ara tumanida-gi umumiy o'rta ta'lim makta-bi direktorlari uchun Qo'qon universitetida seminar bo'lib o'tdi. **"Najot – maktabda, najot – ta'limda, najot – bilimda"** deb nomlangan seminarda 42 ta umumiy o'rta ta'lim maktabidan kelgan di-rektorlarga universitetda ta-labalarga yaratilgan imkoni-

yatlar, yotoqxona, universitet moddiy texnik bazasi, sport kompleksidagi shart-sha-roitlar va axborot kutubxona markazi faoliyati bilan yaqin-dan tanishtirildi.

Seminar ishtirokchi-larining qiziqtirgan savollar-iga mutasaddilar tomonidan javob berildi.



Martabangiz bundanda ulug' bo'lsin Muborak Adilovna!

Qo'qon universite-tining Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig'i **Ganiyeva Muborak Adilov-na** Qozog'iston Respublikasi **"Qo'sh qanot"** ijod jamg'ar-masining **"Xalqlar do'stligi"** ko'krak nishoni bilan taqdir-landi.

Ko'krak nishoni Muborak Adilovnaga **"Qo'sh-qanot"** jamg'armasining №26 sonli qaroriga ko'ra **Qozo-**



g'iston Respublikasi **"Qo'sh qanot"** shoir va yozuvchilar ijodiy uyushmasi rahbari,

Qozog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi **Tatiyev Eldorbek** to-

monidan topshirildi.

Taqdirlash marosimi-da talabalarga kitob o'qish-ning nechog'lik muhim ekan-ligini ta'kidlandi.

Shuningdek, tala-balar **"Qo'sh qanot"** xalqaro ijod jamg'armasi a'zosi shoir **Asadulloh Solih** va Chim-kent Universiteti talabasi **Ali-jonov Hikmatillo**larning ijod na'munalaridan bahramand bo'lishdi.

"Business case" musobaqasining final bosqichi bo'lib o'tdi

Qo'qon universi-tetida **Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası** va **Ta-labalariga xizmat ko'rsatish departamenti** tomonidan **"Business case"** musobaqasi-ning final bosqichi o'tkazildi.

Finalda guruhlar o'rtasida tarixda **Nakamu-ra ishi** nomi bilan mashhur bo'lgan case ustida bahs olib borildi.

Guruhlarni baho-lash uchun hakamlar a'zosi va tashqi ekspertlar sifatida **Indorama kompaniyasining** bosh direktori **Avinash Ku-mar**, bosh muhandisi **Umid-jon Ismoilov** va **Ishonch kompaniyasining** HR bo'lim boshlig'i **Abduqodir Abdu-rahimovlar** tashrif buyurish-di.

Hakamlar va eks-

pertlarning baholash mezon-lari asosida guruhlar quyidagi o'rinlarni qo'lga kiritdi:

1-o'rin Turizm yo'nalishi 4-bosqich tala-balaridan tashkil topgan **"Infinity"** jamoasiga;

2-o'rin Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich tala-balaridan tashkil topgan **"Liderlar"** jamoasiga;

3-o'rin Moliya yo'nalishi 3-bosqich tala-balaridan tashkil topgan **"Masters"** jamoasiga;

4-o'rin Turizm yo'nalishi 3-bosqich tala-balaridan tashkil topgan **"Erudit"** jamoasi deb topildi.

Yakunda musobaqa g'oliblariga esdalik sovg'alar topshirildi va sertifikatlar taqdim etildi.

KU va QDPI o'rtasida tajriba almashinuv seminari



Qo'qon universi-tetida **Qo'qon davlat peda-gogika instituti (QDPI)** bi-lan birgalikda **"Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqot kompetensiyalarini shakl-lantirishda zamonaviy yon-dashuvlar"** mavzusida tajriba almashinuv seminari bo'lib o'tdi.

Seminarda Qo'qon universiteti va QDPI profes-sor-o'qituvchilari, maktabga-cha ta'lim yo'nalishi talaba-lari ishtirok etishdi.

Shuningdek, semi-narda Qo'qon universiteti maktabgacha ta'lim yo'nali-shining 2-kurs talabalari to-monidan workshop mashg'u-lotlari ko'rsatib berildi hamda **"Sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish"** fani doirasida sahnaviy ko'rinish namoyish etildi.

Yakunda Qo'qon universiteti hamda QDPI o'r-tasida hamkorlik memorandu-mi imzolandi.



3-DEKABR – XALQARO NOGIRONLAR KUNI

3-dekabr – **Xalqaro nogironlar kuni** munosabati bilan Qo‘qon universitetining Maktabgacha ta‘lim yo‘nali-



shining 2-bosqich talabalari “Ta‘lim” kafedrasida o‘qituvchilari **G. Erkinjonova** va **S. Maxmudov** rahbarligida Qo‘qon shahridagi 39-ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotiga tashrif buyurishdi.

Ixtisoslashtirilgan MTTda talabalar tomonidan tayyorlangan sahna ko‘rinishlari, qo‘shiq va raqslar bolajonlarga quvonch ulashdi hamda bayram munosabati bi-

lan sovg‘alar taqdim etildi.

Aytish joizki, bu tashrif talabalarning ijodkorligini namoyish etishga, jazzi bolajonlarga yanada yaqinroq bo‘lish, mehr ko‘rsatish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga imkoniyat yaratdi.



Qo‘qon universitetida robototexnika va avtomatlashtirish bo‘yicha laboratoriya o‘z faoliyatini boshladi.

Barcha robototexnika sohasiga qiziquvchi talabalar uchun **ajoyib yangilik!** Endilikda talabalar o‘z g‘oyalari, ishlanmalari va startap loyihalarini ushbu laboratoriyadagi mavjud jihozlar yordamida tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Laboratoriyada talabalarga nazariy bilimlarni mustahkamlash va ulardan amaliy foydalanish uchun

quyidagi sharoitlar yaratilgan:

- 1) Arduino bo‘yicha boshlang‘ich dasturlash;
- 2) Loyiha sxemalari ni ishlab chiqish;
- 3) Prototip qurilmalarni yig‘ish va ishga tushirish;
- 4) Zamonaviy smart qurilmalar yaratish;
- 5) 3D printer orqali loyiha modellarini ishlab chiqish.



“Najot – maktabda, najot – ta’limda, najot bilimda” ta’lim marafoni dasturi amalda

Qo‘qon universitetining vakillari “**Najot – maktabda, najot – ta’limda, najot bilimda**” ta’lim marafoni dasturi doirasida Qo‘qon shahridagi **7, 22-maktablarda** bo‘lishdi.

Mazkur dastur doirasida universitet vakillari umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan bitiruvchi-o‘quvchilarni bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqlarini yanada kuchaytirish, yoshlar-

ni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, bitiruvchilar o‘rtasida ilmiy-ma’rifiy muhitni shakllantirish, shaxsiy rivojlanish va to‘g‘ri kasb tanlash zaruriyatini anglatish yuzasidan targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib bordi.

Yakunda Qo‘qon universiteti va maktablar o‘rtasida **innovatsion-korporativ hamkorlik memorandumi** imzolanmoqda.



Qo‘qon universitetida matematika fanidan olimpiada bo‘lib o‘tdi



Qo‘qon universitetida Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasida hamda Ilmiy-tadqiqot departamenti tashabbusi bilan talabalar o‘rtasida matematika fanidan olimpiada o‘tkazildi.

Mazkur olimpiadada **50 nafar** talaba ishtirok etib, ular belgilangan auditoriyalarda matematika fani bo‘yicha test topshiriqlari yechish orqali o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazdilar.

Bunday olimpi-

adalarini o‘tkazishdan asosiy maqsad talabalar orasida ushbu fanga qiziquvchi, intiluvchan va ijodkor yoshlarni aniqlab, ulardagi ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishdan iborat.

Shuningdek, bu kabi olimpiadalarni muntazam o‘tkazish ularning respublika va xalqaro darajadagi olimpiadalarda ishtirokini ta’minlashga zaruriy shart-sharoitlarni yaratishga dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

YUTUQLAR E'TIROF ETILDI

Qo'qon universiteti-da direktor va talabalar o'rtasida ochiq muloqot bo'lib o'tdi. Talabalar bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda bugungi kunda talabalarga yaratilgan imkoniyatlar, kitob mutolaa qilish va ilm olishni maqsad qilish, ularning bilimli bo'lishi uchun hamkorlik aloqalari va universitetning maqsadli rejalariga to'xtalib o'tildi.

Shuningdek, ochiq muloqotda ilm olish, o'tib borayotgan har bir soniya

muqaddas ekanligini hayotiy misollar bilan ta'kidlanib, yetuk kadr bo'lish yo'lida o'zi uchun vaqt ajratish, katta maqsadlar sari dadil qadam

tashlash kerakligi to'g'risida tavsiyalar berildi.

Yakunda Qo'qon universitetida o'tkazilgan "Yil talabasi", "Typing chempio-

nati", "Matematika" olimpiadasi va nomdor stipendiya sovrindorlari hamda «ТВОЙ МИР – ТВОЙ ПРОЕКТ» xalqaro chempionat ishtirokchilarining erishgan yutuqlari e'tirof etilib, ularga tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.



Qo'qon universiteti talabalari Yevropaning top universitetlarida magistraturani davom ettiradi

Qo'qon universitetining 4-bosqich iqtisodiyot yo'nalishi talabalari Botirjon Rajabboyev va Shohrux Nishonqulovlar Angliya va Italiyadagi nufuzli universitetlarning magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilindi.

Botirjon Rajabboyev va **Shohrux Nishonqulovlar** ayni paytda dunyoda QS rankingda **169-o'rinda** turuvchi **Angliyadagi Read-**

ing University, 104-o'rinda turuvchi **Sheffield University** va shu ko'rsatkichda Italiyadagi **159-o'rinda** turuvchi **Luiss University** oliygohlarida magistraturada ta'limni davom ettirish imkoniyatini qo'lga kiritishdi.

Talabalarimizning ilm olish yo'lidagi ishlariga muvaffaqiyat va omad tilab qolamiz.



"MY.GOV.UZ – XIZMATINGIZDA!" loyihasi doirasida seminar-trening bo'lib o'tdi



Qo'qon universitetida "MY.GOV.UZ – XIZMATINGIZDA!" loyihasi doirasida "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanish tartibi, imkoniyatlari va afzalliklari" mavzusida seminar-trening bo'lib o'tdi.

Qiziqarli seminar-treningni Qo'qon univer-

siteti professor-o'qituvchilari va talabalari uchun Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi, bo'lim boshlig'i **Bobur Nurmanov** va markaz xodimlari tomonidan o'tib berdi.


Seminar-treningda talaba-yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi.

Matematika fanidan "MATH QUIZ" musobaqasi bo'lib o'tdi

Qo'qon universitetining 1-talabalar turar joyida yashovchi talabalar o'rtasida Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasidan "MATH QUIZ" musobaqasi tashkil etildi!

Musobaqada "EKONOMIST", "MAKSIMUM", "EVEREST" jamoalari o'zaro bellashdilar. Musobaqada jamoalar o'zlarining

matematik mantiq, tanqidiy fikrlash hamda hisoblashlar-



ga doir bilimlarini sinovdan o'tkazdilar.

Shiddatli va intriga-ga boy bo'lgan bellashuv barcha ishtirokchilarga ko'tarinki ruh bag'ishladi. Musobaqa natijasiga ko'ra, Kompyuter injiringi va Iqtisodiyot yo'nalish talabalaridan tuzilgan "EKONOMIST" jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Informatika o'qituvchilari Qo'qon universitetida jam bo'ldi

Qo'qon universitetiga Qo'qon shahridagi umumta'lim maktablarining informatika o'qituvchilari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda 2026-yil O'zbekistonda bo'lib o'tadigan **Xalqaro informatika olim-**

piadasiga tayyorgarlik xususida so'z bordi.

Shuningdek, yig'ishda Qo'qon shahar hokimi

Usmonov Ma'rufjon A'zamovich so'zga chiqib,

so'zga chiqib,

Xalqaro olimpiadada munosib ishtirok etish uchun barcha sharoitlarni yaratish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Qo'qon universiteti kelgusida ushbu Xalqaro olimpiadada yoshlarning munosib ishtirokini ta'minlashga amaliy ko'mak berish bilan bir qatorda, universitetda faoliyat yurituvchi soha mutaxassislarini, mavjud kompyuter auditoriyalari va ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarini safarbar qilishga tayyorligini bildirdi.



Rossiyaning yetakchi pedagogika universiteti bilan hamkorlik memorandumi imzolandi



Qo'qon universiteti va **A.I.Gersen** nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti vakillari – **Barchenko S.A., Mereshkin D.E.** va **Yepifansev S.V.** lar o'rtasida navbatdagi muzokara bo'lib o'tdi. Uchrashuvda har ikki oliygo'ha manfaatlarini ko'zda tutuvchi maqsadlar va takliflar o'rtaga tashlandi.

Bundan tashqari, pedagogik ta'lim sifatini ta'minlash, yangi bilim va

malakalarni shakllantiruvchi resurslarni birlashtirish, talabalar va professor-o'qituvchilar uchun stajirovka tashkil etish va ilg'or ta'lim amaliyotlarida muvofiqlikka erishish kabi masalalar xususida fikr almashildi.

Yakunda Qo'qon universiteti va **A.I.Gersen** nomidagi **Rossiya davlat pedagogika universiteti** o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Masofaviy ta'lim shakli talabalari ko'tarinki ruhda kutib olindi



Bugun Qo'qon universiteti yana talabalar bilan gavjum bo'ldi. **3 yil va undan ortiq ish tajribasiga ega masofaviy ta'lim talabalar** universitet B binosining hovlisida bayramona tarzda kutib olindi.

Talabalarining kayfiyatini yana ko'tarish maqsadida qiziqarli o'yinlar o'tkazildi hamda ular uchun sho'x kuy va qo'shiqlar jarang sochdi.

"Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat"

Tadbirda Qo'qon universitetining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha **prorektor Sh.Dexkanov**, Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig'i **M.Ganiyeva**, "**Qalandarxona**", "**Yalong'ochota**", "**G'ishtko'prik**", "**Par-pashibof**" mahallalarining xotin-qizlar faollari, talabalar hamda pedagogika kolleji ta-

labalari ishtirok etdi.

Bayramona o'tgan tadbirda so'zga chiqqanlar bugun O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, oila va xotin qizlar faoliyatini takomillashtirish, oilalarni mustahkamlash bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarining mazmun-mohiyatini ochib

berdilar.

Shuningdek, "**Ayol-larga ilm berish – jamiyatni ilmi, ma'rifatli va salohiyatli qilish**" degan qoidani hayotga tatbiq etish lozimligi ta'kidlandi.

Tadbir davomida iqtidorli talabalarning badiiy chiqishlari barcha ishtirokchilarga manzur bo'ldi.



Qo'qon universiteti va Qo'qon universiteti Andijon filiali professor-o'qituvchilari uchun seminar

Qo'qon universiteti hamda Qo'qon universiteti Andijon filiali professor-o'qituvchilari uchun **"Ta'lim sifatini ko'tarishning tayanch nuqtasi va kasb malakasi"** mavzusidagi seminar bo'lib o'tdi.

Ushbu seminar mashg'ulotlarda mustaqil faoliyat yuritish, talabalarni hemis platformasi orqali mus-

taqil o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llari bilan tanishtirish, ma'lumot va natijalarni yuklash bilan bog'liq ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida tashkil etildi.

Shuningdek, seminarda kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim olishning usul va vositalarining mazmun-mohiyati xususida fikr almashildi.




KUAF rektori talabalar va ularning ota-onalari bilan uchrashdi

Qo'qon universiteti Andijon filiali rektori **Tuychiyev G'olibjon "ORIENTATION WEEK"** haftaligi doirasida talabalar va **ota-onalari** bilan uchrashuv tashkil qildi. Unda talabalar uchun

yaratilgan imkoniyatlar, universitetning kelgusidagi istiqbolli rejalariga to'xtalib o'tdi. Ota-onalar va talabalarining qiziqtirgan savollariga javob berishdi.



Rektor va talabalar uchrashuvi bo'lib o'tdi



Qo'qon universiteti Andijon filiali rektori **G'U. Tuychiyev** universitet talabalari bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

Uchrashuvda universitetning istiqbol rejaları, talabalarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, ular uchun

yaratilgan shart-sharoitlar, imtiyozlar; o'qitishning kredit-modul tizimi va **HEMIS** dasturi hamda ularning ta'lim jarayonidagi afzalliklari to'g'risida so'z bordi.

Yakunda talabalar o'zlarining qiziqtirgan savollariga javob olishdi.

TALABALAR "BOG'I BOBUR"GA SAYOHAT QILDILAR

Qo'qon Universiteti Andijon filialida **Orientation Week** dasturi doirasida talabalarining ma'daniy va ma'rifiy dam olishlarini ta'minlash hamda tarixiy va ma'daniy meroslarimizni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash maqsadida viloyatimizdagi **"Bog'i Bobur"** milliy bog'i majmuasiga ekskursiya tashkil etildi.

Ushbu sayohat moyaynida o'qituvchilar tomonidan talabalar bilan birgalik-



da hazrati bobokalonimiz **Z.M. Bobur** bosib o'tgan hayot yo'llari va ijodi haqida qiziqarli suhbatlar bo'lib o'tdi. Talabalar **Zahiriddin Muhammad Bobur** tavalludining **510 yilligi** uchun bunyod qilingan ushbu milliy bog' haqida o'zlarining qiziqtirgan savollariga batafsil javob oldilar.

Bir so'z bilan aytganda, talabalar ushbu tashrifdan bir olam ijobiy taassurotlar bilan qaytdilar.

Yetakchi Rossiya universitetidan Qo'qon universiteti Andijon filialiga tashrif

Rossiya Federatsiya-
si Sog'liqni saqlash vazirli-
gining **N.I.Pirogov** nomida-
gi **Rossiya milliy tadqiqot
tibbiyot universitetidan** bir
guruh vakillar Qo'qon univer-
siteti Andijon filialiga tashrif
buyurishdi.

Uchrashuvga **N.I.
Filatov** nomidagi shahar
klinik shifoxonasi Bosh
shifokor o'rinbosari, tibbiyot
fanlari nomzodi **P.M Yarus-**



tovskiy, bolalar jarrohlari
tibbiyot fanlari doktori **Al-
Mashat Namir Adnanovich**
hamda tibbiyot fanlari dok-
tori, **Xolastova Viktoriya
Valeryevna** kabi o'z kasbi-
ning fidoyilari tashrif buyurib,
universitetning ichki va tash-
qi imkoniyatlari va farm zo-
nalariga yuksak baho berdilar
va kelgusidagi istiqbolli ham-
korlik va rejalar haqida fikr
almashildi.

Bahs-munozaralarga boy Zakovat intellektual o'yini bo'lib o'tdi

**Qo'qon universite-
ti Andijon filialida** talabalar
o'rtasida zakovat intellektu-
al o'yini bo'lib o'tdi. Unda

barcha yo'nalish talabalari
faol ishtirok etib, o'zlarining
 mantiqiy bilimlarini sinovdan
o'tkazdilar.

Ushbu intellektu-
al o'yin tanlovi natijalariga
ko'ra quyidagi jamoalar eng
yuqori o'rinlarga munosib
deb topildi:

1-o'rinni farmat-
sevtika yo'nalishi 102- guruh
talaba yoshlarining **"Vita-
minka"** jamoasi,

2-o'rinni davolash
ishi yo'nalishi 104-guruh
talaba yoshlarining **"Galen"**
jamoasi,

3-o'rinni davolash

ishi yo'nalishi 103- guruh
talaba yoshlarining **"Pro
Medic"** jamoasi egalar,
universitet ma'muriyati to-
monidan belgilangan maxsus
sovrinlarni qo'lga kiritdilar.



KITOB INSONIYATNING TAFAKKUR XAZINASIDIR

Qo'qon universiteti
Andijon filiali Axborot-kutubxona markazi tomonidan
**"Kitob insoniyatning qalb
gavhari, tafakkur xazina-
sidur"** mavzusida Andijonning taniqli yozuvchilari ishtirokida ijodiy kecha tashkil etildi. Ushbu kechaga O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Andijon viloyati bo'limi raisi shoira **Xurshi-**

dabonu, jurnalistlar uyush-
masi a'zosi shoir **Najmiddin
Ikromiy**, yozuvchi shoir **Vo-
sid Ahmad** tashrif buyurdilar. Ularga universitetimizda faoliyat olib kelyotgan pedagogika fanlari doktori, professor **Qodirov Valijon** aka hamroh bo'ldi.

Tashrif buyurgan
adiblar universitet talabala-
riga o'zlarining ijod namu-

nalaridan parchalar o'qib
eshittirdilar. Talaba yoshlar
o'zlari qiziqqan savollariga
batafsil javob oldilar.

Tadbir so'nggi-
da O'zbekiston yozuvchilar
uyushmasi Andijon viloya-

ti bo'limi raisi shoira **Xur-
shidabonu** Axborot kutub-
xona markaziga **Dilrabo
Toshtemir qizi, Xabib Sid-
diq** va **Sirojiddin Sayidlar-**
ning yangi asarlarini taqdim
etdilar.



Bosh muharrir
G'ofurjon Xaxidov

Matn muharriri
Sultonboy Allonov

Sahifalovchi-dizayner
Asadbek Davrboyev

Fotomuxbir
Izzatbek Ibrohimov

Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri,
Turkiston ko'chasi, 28 A-uy

(+998) 73 545 55 55

@kokanduniversity